

## **SURXONDARYO VILOYATIDA ALLERGIK KASALLIKLARNING UCHRASH XUSUSIYATLARI**

**Tursunova Shaxnoza Xamro qizi  
Xolboyev Norbek Aliniyozovich**

*Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Tibbiyot  
fakulteti o'qituvchisi*

**KIRISH:** Allergik kasalliklar, jumladan, allergik rinit va bronxial astma, Surxondaryo viloyatining qurg'och iqlimi, chang-g'uborli havosi va mahalliy allergenlari bilan bog'liq holda aholining sog'lig'i uchun jiddiy xavf tug'diradi. Bu hududda allergik kasalliklarning tarqalishi va ularga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish zarurati mavjud.

**USULLAR:** Tadqiqot Termiz, Denov, Jarqo'rg'on, Sho'rchi va Uzun tumanlarida o'tkazildi. Epidemiologik so'rovnomalar, klinik kuzatuvlar va laborator tahlillar orqali ma'lumotlar yig'ildi. Diagnostika jarayonida immunoglobulin E darajasi va turli allergenlarga sezuvchanlik terituv testlari yordamida baholandi.

**NATIJALAR:** Tadqiqotda 500 nafar ishtirokchi o'rganildi, ularning 28% allergik kasalliklarga chalingan. Eng ko'p uchraydigan kasalliklar allergik rinit (12%), bronxial astma (8%) va atopik dermatit (5%) bo'ldi. Ekologik faktorlar, genetik moyillik va mahalliy oziq-ovqatlarga sezuvchanlik asosiy xavf omillari sifatida aniqlandi.

**MUNOZARA:** Olingan ma'lumotlar Surxondaryo viloyatida allergik kasalliklarning tarqalishi qurg'och iqlim va mahalliy allergenlar bilan bog'liq ekanini tasdiqlaydi. Profilaktika choralari sifatida ekologik sharoitlarni yaxshilash, maxsus diagnostika usullarini joriy etish va aholini ma'lumot bilan ta'minlash tavsiya etildi.

**XULOSA:** Tadqiqot natijalari Surxondaryo viloyatida allergik kasalliklarning tarqalishi va ularga ta'sir etuvchi asosiy xavf omillarini aniqlashda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qildi. Hudud aholisi uchun allergik rinit va bronxial astma eng ko'p tarqalgan kasalliklar ekanligi tasdiqlandi. Allergenlar ta'sirini kamaytirish va aholini himoya qilish bo'yicha choralar ishlab chiqish orqali kasalliklarni erta aniqlash va davolash imkoniyati oshiriladi. Shuningdek, ushbu yo'nalishda qo'shimcha tadqiqotlarni amalga oshirish zarurligi qayd etildi.